

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**TOJIYEV ALIMUROD ALIAKBAROVICH**

**HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA USLUBIY IZLANISHLAR**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**FİLOLOGİYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Sontent of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Tojiyev Alimurod Aliakbarovich**

Hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlar.....5

**Tajiev Alimurad Aliakbarovich**

Stylistic Explorations of Contemporary Uzbek Short Prose.....27

**Tajiev Alimurod Aliakbarovich**

Стилевые исследования современной узбекской малой прозы.....53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**TOJIYEV ALIMUROD ALIAKBAROVICH**

**HOZIRGI O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA USLUBIY IZLANISHLAR**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti (XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2463 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirildi.

**Ilmiy rahbar:**

**Karimov Bahodir Nurmetovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yakubov Islom Ahmedjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor  
**Sattorova Gulnoza Yunusovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: Toshkent sh., Yakkasaroy tum., Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Web-site: [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz) E-mail: [toshdotau@exat.uz](mailto:toshdotau@exat.uz) Tel:71-281-45-11

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**H. Dadaboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

**Q. Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**N. Jabborov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida hikoya janri takomili, g‘oyaviy-badiiy aspektlari, shakl va mazmun jihatdan yangilanish jarayonlarini o‘rganish muhim masalalaridan hisoblanadi. Xususan, bugungi kunda hikoyachilik uslubi va uning tadrijiy evolyutsiyasi, ifoda shakli, syujet, obraz, xarakter yaratish prinsiplari tobora boshqacha shakl-shamoyil kasb etmoqda. Jahon adabiyotida paydo bo‘lgan yangi metodlar, yo‘nalishlar hozirgi o‘zbek hikoyanavislari ijodiga, dunyoqarashi va uslubiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi tabiiy hol.

Dunyo va o‘zbek adabiyotida keyingi yillarda yaratilayotgan hikoyalarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, uslubiy tadriji, ulardagi ifoda va tasvir, talqin va tahlil, xarakter yaratish mahorati, o‘zbek modern hikoyachiligi maktabi, bugungi yangilanayotgan o‘zbek nasridagi yetakchi tamoyillarini aniqlab olish hozirgi adabiyotshunoslik oldidagi zaruriy vazifalardan biridir. Garchi bu masalalar bo‘yicha juda ko‘p ilmiy izlanishlar, nazariy tadqiqotlar, tahliliy maqolalar yaratilayotgan bo‘lsa-da, hozirgi hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlar mohiyatini keng planda, adabiy tafakkurdagi yangilanishlar belgilarini konkret yozuvchilar ijodi misolida aniq o‘rganish alohida tadqiqot talab etadi. Tadqiqotga asos qilib olingan asarlar bugungi o‘zbek hikoyachiligidagi adabiy qiyofani, adiblarimiz tafakkur darajasi va poetik imkoniyatlarini ko‘rsatib berishi bilan xarakterlanadi.

Adabiyot hamisha zamon bilan hamnafas tarzda rivojlanadi. U hamisha xalq qalbi harorati, orzu-umidlar, tasavvur va ideallarini o‘zida ifoda etadi. Shu ma’noda, “adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”<sup>1</sup>ligi uchun hozirgi adabiyotshunoslikning ko‘plab muammolari bo‘yicha yangi davr talablari darajasidagi tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydag‘i PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 28-iyuldag‘i PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2017-yil 3-avgustdag‘i O‘zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” ma’ruzasi va tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida hikoyaning janr xususiyatlari, nazariy asoslari, uslub va ifoda jihatlari Aristotel, V. Belinskiy, A.N.Veselovskiy, M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, L.Timofeyev, M.B.Xrapchenko, Yu.Borev, N.D.Tamarchenko,

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойdevоридир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил 4 август.

Ye.I.Xalizev kabi rus olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan<sup>2</sup>. O‘zbek adabiyotshunosligida hikoya janri xususiyatlari, adib mahorati, uslub va ifoda, syujet va kompozitsiya, konflikt, obraz va boshqa ko‘plab masalalar M.Qo‘shtonov, N.Karimov, S.Mamajonov, N.Vladimirova, S.Mirvaliyev, U.Normatov, A. Rasulov, B. Nazarov, A.Alimuhammedov, N. Rahimjonov, H.Boltaboyev, Q.Yo‘ldoshev, Y. Solijonov, X.Do‘stmuhammad, D.Quronov, B. Karimov, A. Ulug‘ov, B. Rahmonov, U. Jo‘raqulov, Sh.Doniyorova, G.Sattorova, D.Xoldorov, S.Komilova, Sh.Odilov, M.Qo‘chqorova va boshqa olimlarning monografiya, dissertatsion ishlari va maqolalarida atroflicha yoritilgan<sup>3</sup>.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi hayotni badiiy idrok va ifoda etishning yangicha yo‘slnari, tamoyil va uslublari, shakl-mazmundagi yangilanishlar asosini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek va jahon adabiyotshunoslidagi uslub haqidagi nazariy qarashlarni tizimli o‘rganish va bu hodisa mohiyatini dalillash, o‘zbek hikoyachiligi uslubining tadrijiy rivojini xronologik aspektda ochib berish;

bugungi hikoyalarning an‘anaviy hikoyalardan shakl-mazmun va ifoda jihatidan farqli va uyg‘un tomonlarini nazariy asoslash;

<sup>2</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Выс. школа, 1989. – 406 с; Белинский В.Г. Собрание сочинений. – Т.3. – Москва: Худ. литер, 1978. – 271 с; Борев Ю. Эстетика. Теория литературы: Энциклопедический словарь терминов. – Москва: Астрель, 2003. – 575 с; Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – Москва: Сов. писатель, 1981. – 400 с; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетика. – Москва: Худ. литер, 1975. – 502 с; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – Москва: Выс. школа, 1971. – 118 с; Храпченко М.П. Познание о литературе и искусстве. – Москва: Наука, 1987. – 575 с; Тамарченко Н.Д. Теория литературы // Роды и жанри. – Москва: ИМЛИ РАН, 2003. – 593 с; Хализев В. Е. Теория литературы. – Москва: Выс. школа, 2002. – 397 с; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта – Наука, 2002. – 248 с.

<sup>3</sup> Кўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1962. –201 б; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқолол мафкураси: Фил. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 49 б; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008. – 582 б; Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент: Faafur Fулом, 1992. – 219 б; Владимирова Н. Развитие жанра рассказа в узбекской литературе: Дисс... д-ра филол наук. – Ташкент, 1985. – 340 с; Владимирова Н. Чўлпон – хикоянавис // Чўлпоннинг бадиий олами. – Тошкент: Фан, 1994. – 114 б; Мирвалиева С. Наср, давр, қаҳрамон. – Тошкент: Faafur Fулом, 1983. –240 б; Норматов У. Насримиз уфқлари. – Тошкент: Faafur Fулом, 1974. – 215 б; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 112 б; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб: услуб муаммосига назарий нигоҳ ва ҳозирги ўзбек насида услубий изланишлар. – Тошкент: Фан, 1992. – 105 б; Солијонов Й. Ҳакиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. –228 б; Солијонов Й. Адабиёт хиёбони. – Фарғона, 2020. – 324 б; Куронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б; Умаров С. Санъатнинг сехрли қалити. – Тошкент: Faafur Fулом, 1974. – 99 б; Досмухаммедов Ҳ. Ҳозирги ўзбек хикоячилигидаги бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80 йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида): Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995. – 136 б.; Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги: Фил. фан.номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 130 б.; Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек хикоячилигига миллий характер муаммоси: Фил. фан.номз... дисс. – Тошкент, 2002. –136 б; Камалова С. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривожи: Фил. фан.номз... дисс. автореф – Тошкент, 2016. – 92 б; Кўчқарова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари (Эссе, қисса, ҳикоя: тадқиқ ва талқин). – Тошкент: Мұхаррир, 2011. – 232 б; Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларидаги қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: Фил. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 23 б; Сопиева Ш. Хайриддин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати: Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006. – 147 б; Жўраева М. Замонавий ўзбек насида янги инсон концепцияси (Абдуқаюм Йўлдошов ва Зулфия Куролбой қизи ҳикоялари асосида): Фил. фан бўйича фалсафа доктор (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. –53 б.

davr voqeliklari va jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlarning ijodkor uslubiga ta’sirini ko‘rsatish, adiblar ijodidagi psixologik uslub tabiatini belgilash, hikoya janrida badiiy timsol va metaforik obrazlar tutgan o‘rnini aniqlash;

yangi avlod yozuvchilarining g‘oya, obraz va xarakter yaratish, tasvir va ifoda san’ati va poetik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Xurshid Do‘stmuhammad, Olim Otaxon, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Abduqayum Yo‘ldoshev va Zulfiya Qurolboy qizi, Bahodir Qobul, Shuhrat Matkarim hikoyalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** XX asr o‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlarni kuzatgan holda badiiy matndagi g‘oya, shakl va mazmun munosabatlari, ifoda, xarakter masalasi tadqiqi orqali ushbu janr taraqqiyoti bosqichlarini belgilash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, sotsiologik, biografik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quydagilardan iborat:

hikoyaning kichik epik janr sifatida zamonaviy o‘zbek nasrida tutgan o‘rnini aniqlash, keyingi yillarda yaratilgan hikoyalardagi g‘oyaviy, uslub, shakl va mazmundagi yangilanishlar mohiyati ochib berilgan;

davr voqeliklarini yozuvchilar uslubiga ta’siri, hozirgi hikoyalarni mazmun va shakl jihatdan boyitgan omillar aniqlanib, hikoyalarda psixologik tasvir unsurlari, polifoniylar genezisi aniqlangan;

Bu davr hikoyachiligining jamiyat adabiy-estetik tafakkuriga qo‘sghan hissasi va shakliy-uslubiy xususiyati, ifoda va kompozitsion rang-barangligi ochib berilgan;

Jahon adiblari ijodining o‘zbek yozuvchilarini tafakkuriga ta’siri va ularni uslubda aks etishi masalalari dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalarini** quydagilardan iborat:

Adabiyotshunoslikdagi uslub tushunchasi haqida turli manbalar ko‘rib chiqilib, nazariy xulosa bildirilgan;

zamonaviy o‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlar, shakl va mazmun, ifodadagi yangilanishlar ilmiy asoslangan;

mustaqillik davridagi hikoyachilik uslubining o‘ziga xos jihatlari ayrim adiblar asarlari asosida isbotlangan, mualliflarning hikoyalari jahon adiblari asarlari bilan qiyosiy tahlil etililib ilmiy dalillangan;

hikoyada keltirilgan badiiy tasviriy vositalar, ramz, metafora va detallarning tabiatiga qarab har bir yozuvchining individual uslubi ko‘rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** masalaning to‘g‘ri qo‘yilganligi, yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, nazariy fikr va xususiyatlarning amaliyotga tatbiq etilganligi, qiyosiy-tipologik, sotsiologik, biografik tahlil metodlari orqali xulosalarning asoslangani, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi hikoyachilikning nazariy asoslari, uslub va janr, uslubiy-kompozitsion va syujet qurilishi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan oliy o‘quv yurtlari filologiya yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan ma’ruza mashg‘ulotlarida, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy-nazariy xulosalardan “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon va o‘zbek adabiy tanqidi”, “Badiiy tahlil asoslari” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlar tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

dunyo ilm-fanidagi yangiliklar, texnik-texnologik yutuqlarini o‘z asarlarida aks ettilayotgan yozuvchilardan biri – Abduqayum Yo‘ldoshevning “Shayxur-rais”, “Qaydasan mo‘jiza” kabi to‘plamlaridan o‘rin olgan hikoyalardan olinadigan bolalar dunyoqarashining asosiy qirralari, uning tabiatи, ruhiyatiga ta’sir etuvchi ma’naviy-axloqiy omillarga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IL-402104474 raqamli “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 24-sentabrdagi № 04/1-2576-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha bolalar adabiyotining yetakchi xususiyatlari, g‘oyalari aks etgan asarlar, nazariy materiallar bilan boyishiga asos bo‘lgan;

bu davr hikoyachiligining shakliy-uslubiy xususiyati, stilistik-leksik jihatlari, yozuvchilarning individual uslubi, xususan, taniqli yozuvchilar Bahodir Qobul va Shuhrat Matkarim hikoyalardagi sheva va didaktik birliklar tahliliga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan П13-2020042022-raqamli “Turkiy tillarning lingvovidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 3-dekabrdagi №04/1-3998-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha turkiy elatlarning ayrim urug‘lariga xos leksik birliklar, sheva so‘zлari va iboralar bilan to‘Idirilishiga zamin yaratilgan;

bugungi hikoyachilikdagi yetakchi tamoyillar, yozuvchilar tafakkuri tadrijining uning uslubida aks etish masalalari haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining Turkiy xalqlarning adabiyotiga bag‘ishlangan “Buyuk yurt allomalari” hamda o‘zbek adabiyotiga bag‘ishlangan “Barhayot siymolar” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali davlat muassasasining 2024-yil 24-sentabrdagi 06-28/869-son ma’lumotnomasi). Natijada, bugungi zamon nasri, xususan, o‘zbek modern hikoyachiligi yetakchi tamoyillari, XX asr turkiy adabiyotining o‘zbek adiblari ijodiga ta’siri masalalari haqida tushuncha va bilimlarning kengayshiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishi natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiyaning umumiyo mavzusi bo‘yicha jami O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning umumiyo hajmi 237 sahifadan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobи **“Hozirgi o‘zbek nasrining uslubiy va janriy xususiyatlari”** deb nomlanib, birinchi paragrafda **uslubning adabiy-nazariy qirralari** o‘rganiladi. Uslub va uslubiy izlanishlar mohiyatini teranroq tadqiq etishga intilish, adabiy jarayonni yangicha talqinda

o‘rganish har doim alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi o‘zbek nasri, xususan, hikoyanavislidagi har bir ijodkorning o‘ziga xosligini, umuman badiiy nasr uslubi muammolarini tahlil etish mavjud va yangi uslubiy izlanishlarni sinchiklab kuzatishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda hikoyachilik uslubi haqida ayrim nazariy manbalar misolida hikoyachilik uslubi va uning tadrijiy takomili masalasiga to‘xtalindi.

“Uslub” lotincha “stylus” so‘zidan olingan bo‘lib, “yozish uchun tayoq, yozuv asbobi”<sup>4</sup> degan ma’noni bildiradi.

“Uslub” so‘zi shunday ilmiy atamalar qatoriga kiradiki, ular biron bir alohida fanning monopoliyasi hisoblanmaydi. Bu atamadan eng kamida to‘rtta ilmiy soha: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san’atshunoslik, estetika to‘liq huquqi bilan foydalanadi<sup>5</sup>, deydi uslub nazariyasi tadqiqotchilaridan biri A. N. Sokolov. Jahon, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy adabiyot uslubi haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Ammo bu tadqiqotlardan uslubni o‘rganishda aniq metodologiya ishlab chiqilmagani, yakdil qabul qilingan puxta ta’rif mavjud emasligini ko‘rish mumkin. Bu uslub muammozi murakkab va serqirra bo‘lib, uni o‘rganish halihanuz davom etayotgani bilan izohlanadi.

Rus tadqiqotchisi O.Y.Luneva adabiyotshunoslikda “uslub” atamasini tushunishdagi farqlar uning yo lingvistika, yo san’atshunoslikdagi talqinlariga og‘ib ketilishi sabab yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Bu adabiyotning ikkiyoqlama tabiat – uning ham til, ham san’at hodisasi ekani bilan izohlanadi<sup>6</sup>, deydi muallif. Shunga ko‘ra, “uslub” tushunchasini goh badiiy asar tili bilan bog‘lab, tor ma’noda tushunish, goh esa san’at qonuniyatları bilan bog‘lab, keng ma’noda tushunish hollarini kuzatish mumkin. Chunonchi, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da uslubga “tilning kommunikativ va estetik vazifalari birligi bilan boshqa uslubga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning ko‘p ishlatalishi, so‘zlarning obrazli, ko‘chma-metaforik qo‘llanishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha lug‘aviy birliklarning ishtiroy etishi va ularning muhim bir holat – estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o‘ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo‘ladi”<sup>7</sup>, deya ta’rif beriladiki, bunda ham uslubni lingvistik yoki tor ma’hoda tushunish yaqqol ko‘rinib turadi.

Turli adabiyotlarda “uslub” tushunchasi ilmiy iste’molga antik davrda kirib kelgani aytildi. Ana shundan buyon uslub mohiyati, uning tabiatni muttasil tadqiq etib kelinmoqda. Har bir davr bu muammoni o‘z tafakkuri darajasida, o‘z ehtiyojlari assosida hal etishga intildi va oqibatda “uslub” tushunchasining mazmuni va miqyosi kengayib, boyib bordi. Shunday muhim davrlar sifatida antik davr, renessans, klassitsizm, sentimentalizm, romantizm va realizmni qayd etish mumkin. Shu borada Aristotel, N. Bualo, G. E. Lessing, G.F. Shelling, Gegel, I.V. Gyote asarlari ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lib, ularda san’at, uning alohida turlari, chunonchi, so‘z san’atida uslubning o‘rni va roli ko‘rsatib berildi.

Uslub tushunchasi Aristotelning “Poetika” asarida “Tasvirlashning turli usullari” shaklida keltiriladi. Faylasuf: “Bu sohada asarlar tasvirlash usullari bilan ham farqlanadi. Zotan bir xil narsani bir xil vosita bilan tasvirlagan holda yo avtor voqealarga aralashmay hikoya qilishi yoki o‘zini xuddi Homerday tutishi mumkin. Yoki butun hikoya davomida avtor o‘zligicha qolishi, yoxud barcha aks ettiluvchi shaxslarni gavdalantirishi mumkin”<sup>8</sup>, deya uslubga xos jihatlarni keltirib o‘tadi.

<sup>4</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Uslub\\_\(Stil\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Uslub_(Stil))

<sup>5</sup> Соколов А.Н. Теория стиля. – Москва: Искусство, 1968, – С. 3.

<sup>6</sup> Лунева О. Е. Многофункциональность категории “стиль” в литературоведении. Вестник Университета Российской академии образования. № 3/2008, – С. 12.

<sup>7</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 8-жилд. 2012. – Б. 170.

<sup>8</sup> Арасту. Поэтика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 22

Mavzu haqida nemis mutafakkiri I. V. Gyote: “Uslub – idrokning eng tub qatlamlarida, narsalarga xos mavjudlikning o‘zida qaror topadi”, deb yozadi. U uslub deyilganda, narsalarning muayyan shaxs idrokiga ko‘chgan hayotini, yozuvchi idroki va mavjud hayotdagi o‘ziga xosliklar birligini tushunadi.

“Uslub ijodkor hayotni chuqur o‘zlashtirishi orqali to‘plagan nozik va qiziqarli kuzatishlarini sintezlab, ifodalab berishidir. Uning mukammalligi va ko‘lamdorligi yozuvchining hayotni tushunishdagi darajasi va tasvirlash mahoratiga bog‘liq jarayon”, deb yozadi M. B. Xrapchenko.

Rus nazariyotchi olimi M. M. Grishman uslub hodisasini “ritm uslubning, ayniqsa, yozuvchi yozuvining bir qismi bo‘lib, o‘z-o‘zidan sezilmasligi mumkin, lekin uni doim tinglash, ma’lum bir yozuvchining ritmik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Ritm, uslub kabi (uslub asosan hissiyotlar ritmi), muallifning mohiyati, uning tabiat, ruhi”, deya talqin qiladi.

Polyak adabiyotshunosi Yan Parandovskiyning “So‘z kamyosi” asarining bir bobি uslub hodisasiga bag‘ishlanadi. U uslubni ijod psixologiyasining eng qiyin, murakkab muammolari sirasiga kiritadi. Chunki uslub – ifoda usuli, jumlalar tuzish va ularni joylashtirish tartibi har bir ijodkorda har xil. Insoniy nutq orqali odamlarning mijozи, jo‘shqinligi, qiziqqonligi, qusur va fazilatlari, va qolaversa, o‘ziga xos xarakteri ham namoyon bo‘ladi.

“San’atkor voqelikdan tanlab olgan unsurlarini badiiy til yordamida xayolot bilan uyg‘unlashtiruvchi va u yaratgan badiiy dunyon tugal bo‘lishini ta’minlovchi vosita – uslub deb ataladi. Har bir san’atkor uslub yordamida – garchi bu kamdan-kam daholarga nasib etsa-da, – o‘z badiiy dunyosini va uning qonunlarini yaratadi<sup>9</sup>, deb yozadi bu haqda A. Kamyu.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, uslub, ma’lum bir san’atkor asari orqali o‘sha adib yashagan jamiyat, qolaversa, butun boshli xalqning ijtimoiy-madaniy tarixini o‘rganish, shu orqali o‘sha davr yoki muhit haqida ma’lum xulosa, umumiyo tushuncha va tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Aytaylik, Cho‘lpon yoki Qodiriy hikoyalarida xalqning moddiy ahvoli, ijtimoiy tengsizlik, jaholat va xurofotning jazavasini his qilsak, Abdulla Qahhorning qator hikoyalarida ruhan shikastlangan, qandaydir qo‘rquv, hadik, og‘riq ichida yashayotgan ozurda inson timsolini ko‘ramiz.

Uslub har qanday holatda ham muallif tafakkurining mahsuli. U o‘ziga xoslik, individuallik tushunchasini ifodalaydi. Yozuvchining ifoda yo‘sini, til va tasvirdagi o‘zgachalikmi, voqelikka xususiy munosabatimi, olamga ob’ektiv, sub’ektiv qarashimi, barcha-barchasi ijodkorming o‘zligiga borib taqaladi. Undan asar tabiat, xarakteristikasi, xronotopi, yozuvchining o‘ziga xosligi va tabiatini anglash mumkin.

Badiiy asar uslubi, shakliy-uslubiy izlanishlarning nazariy asoslari bilan bog‘liq ayrim masalalar o‘zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, I.Sulton, M. Qo‘sjonov, U. Normatov, A. Rasulov, B. Sarimsoqov, Y. Solijonov, H.Boltaboyev, O‘. Nosirov kabi olimlarimizning adabiyot nazariyasiga doir qo‘llanma va risolalarida muayyan darajada yoritilgan.

Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida uslubni keng ko‘lamda oladi: “Kuchsiz yozg‘uchilarining uslublari bir-biriga o‘xshab qoladir. Ular oddiy uslubda, umumiyo til uslubida yozadir. Shoiring yozg‘uchi san’atkorlikda ko‘tarila borg‘an sayi(n) o‘ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir.

Shoiring xayol, o‘y, tushunish shakllari tugal, komil bo‘lg‘ach, o‘zig‘a yarasha bir uslub borliqqa chiqqan bo‘ladir.

Uslubning adabiyotdagi o‘rnii juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma’lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilg‘an bo‘lishi mumkindir. Ularning eskilagini bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o‘quta olgan kuch uslubdadir<sup>10</sup>.

<sup>9</sup> Альбер Камю. Исён ва санъат. // Жаҳон адабиёти. 1997. № 1. – Б.183-196.

<sup>10</sup> Фитрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Ma’naviyat, 2009. – Б.17.

M. Qo'shjonov yozuvchilik mahorati masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda "uslub" deb hayot voqeliklarini badiiy aks ettirishning ko'pincha tasvir obyekti talablariga ko'ra o'zgarib turuvchi xilma-xil usullarini tahlil etadi.

Uslub, avvalo, ijodkorning individual mohiyatida namoyon bo'lувчи jihatdir. Adibning borliqqa munosabati, zamon va makondagi jarayonlarga o'ziga xos nigohi va xulosasi asnosida yaratilgan obrazlar, xarakter va personajlar, syujetlar badiiy material sifatida yuzaga keladi.

O'z uslubiga ega muallifgina san'atkor yozuvchi bo'la oladi. Uslubda badiiy tasvir ham tashqi ko'rinish singari ahamiyatga ega. D. Qur'onov, Z. Mamajonov, M. Sheralieva hammuallifligida chop etilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati" da esa "Uslub – poetikaning muhim kategoriyalidan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzdagi shakliy qurilishini belgilovchi umumiy prinsip. U, antropologik, ya'ni inson shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Uslubda namoyon bo'lувчи individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) birdek ko'zga tashlanadi"<sup>11</sup>, deb yozadi.

Har qanday ijodkor o'z tafakkur tarzi va olamni anglash darajasini avvalambor, uslubda namoyon etadi. Uning jumla tuzish mahoratidan tortib, tasvir va ifoda yo'sini, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishi va syujet, kompozitsiya, xarakter va kolliziyalarini yaratishgacha bo'lgan jarayon ijodkor uslubining mohiyatini tashkil qiladi.

Uslub, avvalo, ijodkorning individual mohiyatida namoyon bo'lувчи jihatdir. Adibning voqelikka munosabati, zamon va makondagi jarayonlarga o'ziga xos nigohi va xulosasi asnosida yaratilgan obrazlar, xarakter va personajlar badiiy material sifatida yuzaga keladi. Shunday adabiy manbalar, badiiy materiallarning o'ziga xosligi va individualligi uslub hodisasini keltirib chiqaradi.

Nasriy asarlar, xususan, hikoyaga xos uslubiy jihatlarni jamlagan holda, uslub – adabiy asarlarning mohiyatini to'laqonli tushunish imkonini beruvchi vosita hisoblanib, dunyoni his qilish, anglash hamda shu anglaganlarini ifoda qilish usuli sifati talqin qilinishi mumkin.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida **o'zbek hikoyachiligidagi uslub tadriji** masalasi tadqiq qilingan.

Hikoya janri talablariga to'la-to'kis javob beradigan hikoyalarni dastlab jadidchilik harakati vakillari tomonidan yaratildi. Bu asrning boshida chuqur psixologizmga asoslangan, real borliqni o'rab olgan virtual voqelik, unda kechayotgan g'aroyibotlar, mistik-fantastik olamni badiiy tadqiq etuvchi qator hikoyalarni paydo bo'la boshladi. Erksizlik va mahdudlikka qarshi yozilgan Cho'lponning "Novvoy qiz", "Kleupatra", "Qor qo'ynida lola", "Oydin kechalarda" hikoyalari bilan realistik yo'nalishdagi ilk urinishlarni boshlab berdi. "Uloqda", "Jinlar bazmi", (Abdulla Qodiriy) kabi hikoyalarda dunyo adabiyotidagi muhim bir xususiyat, inson botiniga sayr qilish, insonni nafaqat ijtimoiy, balki psixologik hodisa sifatida tanishtirish jarayoni boshlandi. Qolaversa, bu davr hikoyachiligidagi sarguzasht, fantastik, detektiv adabiyot unsurlari ko'zga tashlana boshladi. "Ming bir jon", "Anor", "Bemor", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" (Abdulla Qahhor), "Mening o'g'rigina bolam", "Bobo Kayfiy", (G'afur G'ulom), "Fanorchi ota" (Oybek) kabi davr uslubi, ijtimoiy tafakkurning ustunligi sezilsa-da, ammo so'z san'ati, ifodaviylik va mahorat jihatidan, qolaversa, yarq etib ko'zga tashlanadigan xarakterlarga ega hikoyalarni yaratildi.

XX asrda o'zbek adabiyotida vujudga kelgan sotsialistik realizm usulining asosiy talabiga ko'ra, yozuvchi o'z qahramonini mehnatkash xalq ichidan olishi, mehnatkash xalq hayotini badiiy aks ettirishi, qahramonlar, ayniqsa, bosh qahramonlar albatta ijobiy bo'lishi zarur edi. Bu jarayonda yozuvchining fikr aytish, mohiyatan murakkab va chigal bo'lgan inson qalbi, ruhiyat xususida shaxsiy mulohazalar yuritish imkoniyati torayib, oddiy voqeani bayon etuvchi tafsilotchi maqomiga tushib qolgandi. Hozirgi asrimizda "Bemor", "Anor", "O'g'ri", "Mening

<sup>11</sup> Курунов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 341.

o‘g‘rigina bolam”, “Dahshat” kabi hikoyalar o‘quvchini yuksak so‘z san’atiga xos mahorat, tasvir va ifoda usuli, til xususiyatlari bilan o‘ziga jalb etishi mumkin, ammo estetik ko‘lami, g‘oyasi bilan zukko o‘quvchini hayajonlantira olmaydi.

“XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida yuzlab epik asarlar, roman, qissa va hikoyalar yozildi. Ayniqsa, o‘tgan yuzyillikda yozilgan hikoyalarning hajmi ham, son-sanog‘i ham ko‘p. Biroq adabiyot tarixida abadiy qoladigan, o‘quvchiga zavq bag‘ishlab, hayot mazmuni, insonning sirli dunyosi xususida tafakkurga chorlaydigan nasriy asarlar juda ko‘p emas”<sup>12</sup>, deb yozadi Bahodir Karim. Olim aytganidek, bu davrdagi o‘zbek adabiyoti – katta adabiyot. O‘zbek nasri tarixidagi eng ko‘p asarlar yozilgan va aytish mumkinki, bu asarlarda hayotning ko‘p qirralarini qamrab olishga harakat qilingan. Hikoyachilik janri takomili uchun ham bu davr o‘zgacha xarakter kasb etadi.

Bu borada materiallarning juda ko‘pligi va ko‘ptarmoqlilagini hisobga olib, o‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy jihatdan o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lgan ayrim hikoyalarning tahlili va umumlashma xulosalar orqali masala mohiyatini ochish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab milliy hikoyachilik o‘zining intellektual qahramonlari, polisemantik tabiatni va psixologik-polifonik jihatlari bilan xarakterlanadi. Said Ahmad, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev kabi adiblar ijodida qahramonlar mafkuraviy qobiqlardan chiqib, o‘zining “inson”ga xos jihatlarini ko‘rsata boshlaydi. Bu davr prozasida asosan intellektuallik, sharq kishisiga xos donishmandlik va erkin tafakkur belgilari bo‘y bera boshladи. Shu bilan birga bu davr hikoyachiligidagi diniy mavzularga yaqinlashish, muqaddas dinimiz sanalgan Islom g‘oyalarining turli shakllarda badiiy talqin etilishi kuzatiladi.

Hozirgi hikoyalar o‘zining intellektual qahramonlari, betakror tabiatni va psixologik-polifonik jihatlari, erkin tafakkur belgilari bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga bu davr hikoyachiligidagi islom dini g‘oyalariga turli shakllarda yaqinlashish kuzatiladi. Bu paragrafda hikoyachilik uslubi tadriji, hozirgi hikoyachlikning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, shakl va mazmuni, yozuvchi tafakkuri tadrijining uslubda aks etishi va davr voqeligi masalalari Asqad Muxtorning “Fano va baqo”, Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko”, Shukur Xolmirzayevning “Tabassum” va Xayriddin Sultonovning “Dunyoning siri” hikoyalari misolida o‘rganiladi.

Mazkur hikoyalarda muallif shaxsi va dunyoqarashiga xos xarakter-xususiyatlarni badiiy asar ruhiga singdirish, insonga xos amfivalentlik – bir lahzaning o‘zida olamga nisbatan muhabbat va nafrat tuyg‘ularining to‘qnashuvi, insonning borliqqa kontrast-paradoksal munosabati, shaxsning ratsional va irratsional faoliyati, ong tubidagi xaos va kosmos holatlarining individual shaxs xarakterida namoyon bo‘lishi seziladi.

Mavzuga ijodiyroq yondashishga harakat qilsak, o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyot yo‘lini shartli ravishda uch bosqichga bo‘lib tasniflash mumkin.

1. ***Hayot va inson tasviriga bag‘ishlangan asarlar.*** Bu guruhga jadidlar davrida yaratilgan asarlardan tortib, A. Qahhor, G‘. G‘ulom, Oybek, H. Olimjon kabi yozuvchilar ijodida davr uslubi, jamiyatning ijtimoiy kayfiyati, ruhiyati aks etgan hikoyalarni kiritish mumkin.

2. ***Hayot va inson tahliliga bag‘ishlangan hikoyalar.*** Mazkur guruhdagи hikoyalarda inson va uning ruhiyati, yozuvchi yashagan muhit, ijtimoiy vaziyat qahramonlar xarakteri, syujet va turli badiiy metodlar, yo‘nalishlar vositasida tahlilga tortiladi. Shukur Xolmirzayev, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirovdan tortib, bugungi kunda ijod qilayotgan Shoyim Bo‘tayev, Alisher Ibardinov kabi ijodkorlar asarlarda asosiy masala – inson va uning ruhiyati, iztiroblari, og‘riqlari aks etadi. Ularda inson zamon, ijtimoiy muhit, jamiyatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga sifatida ko‘rsatiladi.

3. ***Hayot va inson tanqidiga bag‘ishlangan hikoyalar.*** Ularda yozuvchining borliq va jamiyatga, ijtimoiy muhitga, insonning hayot tarzi, dunyoqarashi, e’tiqodi va qadriyatlariga tanqidiy nigoh tashlanadi. Bu tasvirdagi ijodkorlar inson ruhiyatini asosiy adabiy ob‘yekt sifatida

<sup>12</sup> Карим Б. Истиқлол адабиёти. Назм ва наср. – Тошкент: Firdavs shoh, 2021. – Б. 70.

oladilar. XX asr g‘arb nazariyotchi, ruhshunos olimlari, yozuvchilarining falsafiy-axloqiy qarashlari ularning ijodiga keng ta’sir o‘tkazgani, g‘arb adabiy-badiiy tafakkuri bilan yozuvchi tafakkuri sintezini mazkur tasnidagi hikoyalalar tabiatida ko‘rish mumkin.

Mazkur asarlarda sarkazm, nigelistik kayfiyat, absurd ruh va isyon tuyg‘ulari asosiy o‘rinda turadi. Murod Muhammad Do‘s, Erkin A’zam, Xayriddin Sulton, Ahmad A’zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro, Isajon Sulton, Muhammad Sharif kabi yozuvchilar hikoyalardida shu kayfiyat, shu uslub ko‘proq yetakchilik qiladi.

Dastlabki bosqichdagagi hikoyalarda garchi realizm unsurlari mavjud bo‘lsa-da, asosan naturalizm tabiatni ustunlik qiladi. Ularda “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” kayfiyatni kuzatish mumkin.

Borliq va inson fenomeni tahliliga bag‘ishlangan asarlarda esa realistik ruh va uslub yetakchilik qiladi. Ularda inson bir mavjudlik, substansiya shaklida talqin qilinadi. Bu tasnidagi hikoyalarda adib voqelik yoxud qahramonni ichki mohiyatini, ruhiyatidagi tovlanishlarni aks ettirishga urinadi. M. M. Do‘s, X.Sulton, E.A’zam, A. A’zam hikoyalardida bu jarayonni kuzatish mumkin.

Uchinchi tasnidagi hikoyalara esa simvolizm, abktraksionizm, syurrealizm, modernizm, absurd qarashlar sintezi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularda qahramon nigohidan ko‘ra roviy nigohi ustunlik qiladi. Bu yo‘nalishdagi hikoyalarni neorealistik usulda hikoyalara sifatida talqin etish mumkin.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “O‘zbek hikoyachiligidagi tasviriy ifoda uyg‘unligi” deb nomlanib, birinchi paragrafda “Hikoyada psixologik uslub tabiat” masalalari o‘rganilgan. Mazkur bobda Xurshid Do‘stmuhammad, Olim Otaxon hikoyalari asosida hikoyada psixologik uslub tabiatini tadqiq qilinadi.

Xurshid Do‘stmuhammad adabiyotimizning tarixi, unda mavjud bo‘lgan an’ana va yo‘nalishlarni mukammal o‘zlashtirgan adib sifatida qarashlarini g‘arb adabiy tafakkurida mavjud ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitdi. Yozuvchi ijodiy uslubi shakllanishida E.A.Po, L.Tolstoy, F.M.Dostoevskiy, F.Kafka, R.Akutagava, J.Joys, Z.Freydlarning asarlari katta ta’sir ko‘rsatdi.

Uning “Qoyalardan balandda”, “Mahzuna”, “Jajman”, “Ibn Mug‘anniy”, “Jimjixonaga yo‘l”, “Jim o‘tirgan odam”, “Bugun ertalab” nomli hikoyalarda an’naviy hikoyanavislikdan mutlaqo farqli ravishda inson shaxsiga yondashadi. Yozuvchi hikoyalardagi qahramonlar, ularning xatti-harakatlari, fe’l-atvori, dunyoqarashi an’naviy hikoyalarmizdagidek ochiq-oydin ko‘zga tashlanmaydi.

Hikoyachilikda hamisha yangicha shakl izlagan adib bu hikoyalarda “hikoyada tilga olingan ma’naviy hudud, ma’naviy makon va zamon o‘quvchini hayot realligidan tamoman farqli holatga olib borishi ... olib qochishi kerak. Hayotning aynan o‘ziga o‘xshatib yozish judayam katta mahorat belgisi emas, yo‘q, hikoya aynan hayotga o‘xshamagan holatlar olamiga aylanmog‘i kerak”<sup>13</sup> prinsipiga tayanadi. Shu ma’noda adib hikoyalari o‘z-o‘zidan hayotiy holatlar va hayotga o‘xshamagan holatlar yig‘indisidan iborat.

Yozuvchining “Saf”, “Qazo bo‘lgan namoz”, “Beozor qushning qarg‘ishi” singari qator hikoyalari an’naviy – realistik uslubda yaratilgan. Adibning “Beozor qushning qarg‘ishi” hikoyasi adibning sharqona xarakterni yaratish, musulmon mentaliteti asoslari va o‘zbek oilasi qadriyatlarini keng planda ko‘rsatib bergani bilan ajralib turadi. Shu hikoyadagi hayot haqiqatlarining quyma tasviri, voqelik hodisalaridan chiqarilgan umumlashma xulosa va asarning original ifoda tarzi adib iqtidorini namoyon qiladi.

Adibning yangilik istagida yozilgan ayrim hikoyalari yechimini topish mushkul labirintga, topishmoqqa o‘xshaydi. O‘quvchi muallif g‘oyasi nima ekanligini dabdurustdan anglay olmaydi. “Mehmon”, “O‘zim”, “Bugun ertalab”, “O‘n birinchi eshik” nomli hikoyalari, ayniqsa, shu

<sup>13</sup> Дўстмуҳаммад Х. Ҳикоя. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б. 110.

tabiat bilan alohida xarakterlanadi. Bu hikoyalarda muallif ma'lum bir syujetni asos sifatida qo'yaydi. Ularda konflikt tashqi belgilari bilan emas, balki ichki xususiyatlari bilan ko'proq ahamiyat kasb etadi. G'oyalar, fikrlar, tushuncha va qarashlar personajlar taqdiri orqali emas, balki muayyan inson botinida kechayotgan tuyg'ular orqali aks ettiriladi. Ularda zamon va makon tushunchasi bosh planga chiqmaydi, zero, qaysi zamon va makonda bo'lmasin, insonning yaxlit tabiat, ruhiyati va qalbi anglanmas holatda bo'ladi. Adib insonni mana shu murakkab psixologik aspektida o'rganadi.

X. Do'stmuhammadning ko'pgina hikoyalari psixonaliz qonuniyatları asosiga qurilgan bo'lib, ularda o'zini o'rganayotgan, taftish qilayotgan qatlam – intellektual shaxslarning borliqqa nisbatan munosabati aks etadi.

Adib hikoyalarining mavzu va g'oya ko'lami, shakl va uslubiy jihatlari bo'yicha quyidagi shartli tasnifini berish mumkin:

- 1) ijtimoiy-psixologik hikoyalar ("Qichqiriq", "Vasiy", "Qoyalardan balandda", "Jimjixonaga yo'l", "Ko'z qorachig'idagi uy", "Mehmon");
- 2) ijtimoiy-falsafiy hikoyalar ("Jim o'tirgan odam", "Bugun ertalab", "Nusxakashning merosxo'ri", "Ibn Mug'anniy", "O'n birinchi eshik", "Saf");
- 3) mistik-fantastik hikoyalar ("Jajman", "O'zim", "Yoqub izquvarning xiylasi", "Ma, osh", "Boloxonadagi boboy");
- 4) tarixiy hikoyalar ("Oq libos", "Qazo bo'lgan namoz", "To'xtaboyning boyliklari");
- 5) og'zaki hikoyalar ("Stol", "Chiroq", "Daraxt");
- 6) topishmachoqlar ("Bir tomchi simob", "Qor odam", "Halqa yo'lidan ho'-o' narida", "Sas").

U hikoya janri tasnifini yana bir shakl – "Og'zaki hikoyalar" turkumini yaratdi. Ular juda ixcham shaklda bo'lib, "Stol", "Chiroq", "Daraxt"<sup>14</sup> deya nomlanadi. Hikoyalarda tashxis san'ati vositasida ushbu predmetlarning nigohi orqali inson umrining yaxlit panoramasi beriladi. Hikoyalar kompozitsion shaklga ega emas, ularda syujet chizig'i, xarakter, voqealar dinamikasi yo'q, hattoki birorta tinish belgisi ham ishlatilmaydi. Ammo asarda ketma-ket ishlatilgan so'zlarning o'ziyoq ma'lum bir detal vazifasini bajaradi.

"So'nggi paytlarda ayrim ijodkorlar orasida rivoyada oddiy tasvir yo'lidan bormaslik, ko'nikib qolganimiz syujet, kompozitsiya qurilishlari xronologik mutanosiblik asosida hikoya qilinadigan voqe-a-hodisalar silsilasi, an'anaviy tasvir usullari o'rniga qahramon ong oqimini aks ettirish, buning uchun o'zgacha tasviriylik yo'llarini tanlash ko'zga tashlanmoqda"<sup>15</sup>, deya baho beradi T. Jo'rayev mazkur davr ijodkorlari faoliyatiga baho berar ekan.

Aytish mumkinki, bu uslubdagi hikoyalar dastavval jahon adabiyotining ulkan bilimdoni, tarjimon va yozuvchi Olim Otaxonning "Muhabbatning go'zal oqshomi", "Xotira va xayol", "Uchinchi nigoh", "Gulzor chekkasidagi quyosh", "Qismat", "To'rtinchi qavatdagagi sarg'ish deraza" kabi qator hikoyalarida bo'y ko'rsatdi. Adib mazkur hikoyalarda qahramonning ruhiy olamini, kechinmalar panoramasini yaratdi, inson qalbini ulkan koinot deb bildi.

80 – 90-yillar hikoyachiliginning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda insonshunoslik, uning qalbidagi zilzilalar bosh planga chiqdi, turli xarakter va uning xatti-harakatlari, ijtimoiy hayotdagi biror voqelik yoxud taqdirlar bayoni badiiy to'qima, ya'ni biz ko'nikkan tugun-yechim binar oppozitsiyasida emas, balki qahramonning unga ongli va ongsiz munosabati tarzida qalamga olinadi. "Alhol, badiiy qahramon muallif yaratgan xarakter emas, balki o'zini o'zi "ixtiro" qilgan (shartli asosda, albatta) o'z tasavvurlari, ong oqimi asosida vujud topgan personajga aylanadi. Endi kitobxon qahramon bilan emas, balki uning "tafakkuri" bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan bo'ldi."<sup>16</sup>

<sup>14</sup>Шу китоб. – Б. 413-417.

<sup>15</sup> Жўраев Т. Онг оқими. Модерн. Фарғона, 2009. – Б. 46.

<sup>16</sup> Шу китоб. Шу саҳифа.

Adib hikoyalarida kundalik turmushimizda uchraydigan turli-tuman voqealarni emas, ulardan tug'ilgan kechinmalarni kishi ruhiyatiga, jamiyat qalbiga ta'siri yoxud aks ta'siri masalasi, inson qalbining eng chuqur nuqtalarida bu voqelik bo'yicha haqiqatlarga e'tibor qaratdi.

Yozuvchining "Gulzor chekkasidagi quyosh" hikoyasi boshdan-oyoq insonda kechayotgan psixologik jarayonlarning tadqiqiga bag'ishlangan. Hikoya qahramoni og'ir xastalikdan zo'rg'a oyoqqa turgan Muayyad uzzukun uyda yotaverish joniga tegadi va o'zini hovliga chiqarishlarini so'raydi. Ich-ichiga tortgan ko'zlaridan qo'rquv va nochorlik alomati arimagan, yuzlari zaxil, darmonsiz qahramonning zohiridagi bu xastaliklar botinida katta o'zgarishlar yasaydi. U tabiatdagi sirli yaralmishlar mohiyatini, inson qalbi bilan tabiiy borliq sir-u sinoatlarining ichki bog'liqligini, olam va odamning yaxlit birligini his qiladi.

Muayyad timsolida ham ayni shu holat, insonga xos qayg'ularning ichki dinamikasi, kechinmalar to'lqinini badiiy g'oya va maqsadlarga ko'chgan tasvirlari O. Otaxon ijodidagi o'ziga xoslikni bildiradi.

Yozuvchining "To'rtinchchi qavatdagi sarg'ish deraza" hikoyasi ham ifoda va tasvir yo'sinining favqulorra yangiligi, insonga xos tabiiy mayllarning psixoanalitik tahlili bilan bizning ko'zimiz o'rgangan ko'pgina hikoyalardan ajralib turadi. Unda hayotni kutilmagan shaklda, o'zgacha adabiy rakursda ifoda qildi. Shaklning yangiligi shundaki, bu hikoyada asrlar davomida o'quvchilar ko'niktirilgan mazmun kategoriyasi bosh planga chiqmaydi. Hikoya qahramoni xayollari, ehtiros va kechinmalarga asir bo'lgan roviy. U dunyoni turfa ranglarda ko'radi va asar davomida mana shu ranglarning ma'nosini qidirib yashaydi. Boshdan-oyoq ramzlar asosiga qurilgan bu hikoyada "...o'zini-o'zi sarson izlayotgan"<sup>17</sup> insonning kechinmalari voqeasiga ko'tariladi. Mumtoz adabiyotimizda urf bo'lgan xud va bexudlik, mast-u betoqatlik, jurm-u isyon, ruhiy jazava holatlari oolib beriladi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi "**Hikoya janrida badiiy timsolning o'rni**" deb nomlanib, unda Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam hikoyalari tahlilga tortiladi.

Nazar Eshonqulning uslubi rang-barangligi, ijodiy izlanishlari bilan e'tiborni tortadi. U ijodni mavjudlikning bir shakli o'laroq borliqqa nisbatan isyon tarzida qabul qildi va shu hodisa barcha asarlarining leytmotivi sifatida xizmat qiladi. Bu so'z qo'llash, jumla qurishdan tortib, voqelikka munosabat, obrazlar dunyosi, metaforalar va tasvirgacha seziladi. Uning "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Maymun yetaklagan odam", "Bahovuddinning iti", "Muolaja", "Tobut", "Xaroba shahar surati", "Qo'l" kabi hikoyalarda hayotidan aytishga arzigelik ma'no va mazmun topa olmayotgan, insonlik mohiyati puchligidan yozg'irayotgan Shaxs timsoli gavdalananadi.

Nazar Eshonqul nasrida zamonaviy va mumtoz adabiy qarashlarning sintezini kuzatish mumkin. Uning nasrida uslubiy jihatdan xayolot bilan voqelik, tush va reallik, inson botinidagi xaotik holatlari bilan unga xos shavq va ehtiros, isyon va iztirobning aralash holdagi tasviri asosiy xususiyatlari sifatida bo'y ko'rsatadi.

Juda ko'plab tadqiqotchilar adib hikoyalarini tadqiq qilar ekan, mazkur hikoyalarning genezisini ayrim jahon yozuvchilardan ta'sirlanish, ijodiy o'zlashtirish, taqlid sifatida talqin etadilar<sup>18</sup>. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash joizki, fanda, xususan, ijoddha hech bir hodisa mustaqil holda mavjud bo'lmaydi. O'qish, o'rganish, ta'sirlanish, ularni ongda sintez qilish, qayta ishslash va o'sha tafakkur, syujet, qahramon, ramz va obrazlarni milliy shaklda taqdim etish va o'quvchi tabiatiga singdira borish jarayoni muayyan vaqt talab qiladi.

<sup>17</sup> Отахон О. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2021. – Б. 165.

<sup>18</sup> Қаранг: Досмухаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигига бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йиллар аввалидаги ҳикоялар мисолида): Филол. фан. номзоди... дисс. – Тошкент: 1995. 149 б; Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигига миллий характер муаммоси: Филол. фан. номзоди дис... автореф. – Т. 2001. – 26 б; Ҳозирги адабий жараёнлар масалалари // Тўплам. Тошкент: Фан. 2022. – Б. 204.

Yozuvchi ijodini bir-biriga bog‘laydigan bir rishta borki, bu muhim poetik unsur – obraz hikoyadan hikoyaga, qissadan-qissaga ko‘chib yuradi. Adibning “O‘lik mavsum” hikoyasidagi muallim komillik ramzi, u dunyodagi barcha ruhiy-falsafiy ilmlarni o‘zida jamlagan. Uning dunyo tartiboti haqidagi otashin nutqlari, falsafiy mushohadalariga maftun bo‘lmaydigan talabaning o‘zi yo‘q. Talabalar uning yurish-turishidan tortib, har bir fikrini, ishora-yu, kinoyasigacha tahlil qiladilar, uzundan-uzun suhbatlari ustoz bilan boshlanib, u bilan tugaydi. Uning ma’ruzalariga, otashin nutqiga astoydil maftun bo‘lgan talabalar shaharning ovloqroq bir joyiga, yemakxonaga chaqirmoqchi bo‘ladilar, ammo ustozning manzilini hech kim bilmaydi. Qidira-qidira topganlarida, ustoz uyi manzili yozilgan go‘sha – qabriston bo‘lib chiqadi.

Hamma fojianing sababi, oqibati, dahshati-yu, qurbanlik ko‘lami haqida qayg‘urayotgan paytda telba – me’mor vafot etgani va uning cho‘ntagidan bir xarita chiqqani haqida xabar keladi. Me’mor ushbu xaritani ko‘zdan kechiriboq masalani tushundi, ancha vaqt o‘ziga kelolmay yurdi. Shahar tobut shaklida qurilgan va bunda yashovchi har bir kishi o‘limga mahkum etilgan edi. Yozuvchi me’mor obrazi orqali inson boshiga keladigan saodatning ham, falokatning ham sababchisi o‘zi ekanligi, quruvchi ham, buzuvchi ham, topuvchi ham, yo‘qotuvchi ham o‘zi, insonga uning o‘zidan ortiq vabo ham, o‘lat ham, yov ham kerak emasligi haqida o‘quvchiga saboq beradi.

Adib hikoyalari qahramonlari a’lo odam, kompleks, yaxlit insonni, ularning umumlashmasi bo‘lgan ulkan millatni qidiradi. O‘z aurasiga, milliy va axloqiy manerasiga ega belgili millat orzusi, shakl va mohiyatdagи butunlik, qo‘rquvdan, nafsdan, maydalikdan ayro bo‘lgan egoni mujassam etish orzusi adib hikoyalari g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi. Yozuvchining estetik ideali ham shunda ko‘rinadi. Adib ijodining leytmotivi bo‘lgan o‘lik mavsum, tobut shaklidagi shahar detallari inson hayotining shafqatsiz iqrornomasiga o‘xshaydi. Ular goh tun, tobut, qon, devor, tun, rutubat, bolta va boshqa ramzlar assotsiativ tarzda bog‘lanib, mohiyatda isyon hodisasini yaratadi. Bu hodisaning mohiyatida insonni o‘zgartirish, uning qalbi, tafakkuri, tasavvurlarini, umumiyl qilib aytganda, o‘zak – mohiyatni o‘zgartirish istagi yotadi.

N. Eshonqulning “Bahovuddinning iti” hikoyasida ham xuddi shunday kayfiyatni kuzatish mumkin. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul bu hikoya haqida to‘xtalar ekan: “Bahovuddinning iti” hikoyasida tasavvufdan ilhomlanish bor. Biroq undan so‘fiyona bir ma’no yoki bo‘yoq qidirmaslik kerak. Hikoyaning nafs, axloq, qalb, ruh to‘g‘risidagi qadim davrlarda ilgari surilgan fikr-mulohazalarni eslashga rag‘batlantirishi – bu boshqa masala”<sup>19</sup>, deydi. Olimning bu fikrlariga to‘la qo‘silib bo‘lmaydi.

“Bahovuddinning iti” hikoyasi yozuvchi ijodiy uslubining eng muhim jihatlarini ko‘rsatib beruvchi falsafiy-tasavvufiy asardir. Qaysidir ma’noda, adib hikoyalarining ichida falsafiy jihatdan ham, ruhiy-irfoniy jihatdan ham, psixologik jihatdan, yangi davr kishisiga xos ekzistensial kayfiyatni ifodalashi jihatidan ham eng baland nuqtaga ko‘tarilgan. Uni falsafiy-ruhiy yo‘nalishda ham, tasavvufiy-botiniy usulda ham tahlil qilish mumkin va asar ikkala talqingga ham material bo‘la oladi. Hikoya syujetiga ulug‘ olim Bahovuddin Naqshbandiyning iti bilan bog‘liq mashhur rivoyat asos qilib olingandek taassurot qoldiradi. Bu yerda tasavvufdagi “vahdat-ul vujud” hodisasiga ishorani ko‘rish mumkin.

O‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy yangilanish, shakl va mazmunda o‘zgachalikka intilish Ulug‘bek Hamdam ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Yozuvchining “Tosh”, “Uzoqdagi Dilnura”, “Lola”, “Qaytish”, “Otash”, “Yaxshi odamlar”, “Musulmon”, “Bir piyola suv”, “Ko‘zini ochib yumgan odam” kabi hikoyalari goh realistik, goh naturalistik, goh esa qahramon o‘zligini noan’anaviy usullarda taftish etayotgan modernistik uslubi bilan farqlanib turadi.

Yozuvchi hikoyalarini tartibga keltirar ekan, ularga “O‘zim bilan o‘zim yuzma-yuz” degan umumiyl nom qo‘yadi. Bu bilan u barcha hikoyalarida o‘z qalbi va ruhiyatini taftish etayotgani,

<sup>19</sup> Ҳаққул И. Эврилиш товуши. // Ҳозирги адабий жараёнлар масалалари. Тошкент: Фан, 2022. – Б. 5.

o‘ziga-o‘zi turli savollar berib, javob izlayotgani, ongida kechayotgan patologik jarayonlarni badiiy idrok etayotgani namoyon bo‘ladi.

U. Hamdam hikoyalardagi fikr va g‘oya, mavzu va kompozitsiya, syujet miqyosini inobatni olib, quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Liro-psixologik hikoyalar. Bu guruhdagi hikoyalarga “Tosh”, “Qaytish”, “Ko‘zini ochib yumgan odam”, “Lola” kabi hikoyalarni kiritishimiz mumkin.

2. Falsafiy-irfoniy hikoyalar. Bu guruhdagi hikoyalarda realistik tasvir uslubi yetakchilik qiladi va ularga “Uzoqdagi Dilnura”, “Musulmon”, “Otash”, “Yaxshi odamlar” kabi asarlari kiradi.

Xuddi X. Do‘stmuhammad hikoyalarda kuzatilganidek, U. Hamdam ham hikoyalarda mavzular bir xilligidan qochadi, o‘z ijodida mavzular rang-barangligiga, uslubiy izlanishlar qilishga harakat qiladi. Uslubiy jihatdan “Uzoqdagi Dilnura” bilan “Lola” hikoyalari bir-biridan farq qiladi, mavzu ko‘لامi nuqtai nazaridan esa “Yaxshi odamlar” bilan “Otam” hikoyalari g‘oyaviy-badiiy jihatdan bir-biridan farqlanadi.

Adib hikoyalarining aksariyatida muallif nigohidan ko‘ra roviy nigohi birinchi o‘rinda turadi. Ularda makon va zamon, muayyan til, din, irq va millatga xos belgilardan ko‘ra, inson shaxsiga yondashishning umuminsoniy tamoyillari ko‘proq ustuvorlik qiladi. Uning asarlarida zamonaviy hikoyachilikdagi asosiy tendensiya – makon va zamonning mavhumligi, asar qahramonining, nasl-nasabi, yoshi va millati noma'lumligida ko‘rinadi. Adib asarlarida muayyan inson ruhiyatidagi o‘zgarishlarni o‘ta murakkab jarayon sifatida talqin qilishdan tashqari, inson tasavvuridagi “mavjudlik” va bu mavjudlikning asosini belgilovchi “mohiyat” tushunchalari birlamchi savollar sifatida belgilanadi.

Uning “Ko‘zini ochib yumgan odam” hikoyasida mana shu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu hikoya uslubi, mavzu yo‘nalishi, ma’no ko‘lamni va poetik miqyosi bilan boshqa hikoyalardan alohida ajralib turadi. “Lola” hikoyasi yuqorida tahlil qilingan hikoyadan mavzu va g‘oya ko‘lamni, syujet qurilishi va kompozitsion belgilari bilan esse janri poetik qonuniyatlariga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchi “Lola”da yozuvchining qandaydir badiiy-estetik ideal qidirayotganini biladi, ammo adib uning nimadan iborat ekanligini biror joyda tilga olmaydi, biror belgi va ishora ham qilmaydi.

Farang adibi Alber Kamyu “Sizif haqidagi asotir” essesida inson hayotining mazmun-mohiyati, yashashning qadr-qimmatini Sizif xatti-harakatlari orqali aks ettiriladi. Sizif – hayotdan ma’no topa olmagan qahramon. U insonning yashash uchun qilgan barcha harakatlarini ma’nisizlik, besamarlik deb ataydi. Bu ma’naviy hayot tarzi absurd tuyg‘u bo‘lib, u XX asr Yevropa tafakkurining eng cho‘qqi nuqtasi bo‘ldi. Kamyu ushbu asardan umumiyl holatda “Hayot yashashga arzimaydi”, degan xulosaga keladi.

U. Hamdamning hikoyasida esa boshqacharoq g‘oya yetakchilik qiladi. Uning qahramoni cho‘qqiga tosh itarib chiqmaydi, balki cho‘qqida yaltirab, olovrang tusda tovlanayotgan lolaga intiladi. Bu yerda lola Sharq adabiy an‘analarida rusum bo‘lgan muhabbat yoki Haqiqat ramzi degan fikrga kelish mumkin. Bu muhabbat – hayotga, tiriklikka, komillikka bo‘lgan muhabbatdir.

Umuman olganda, xuddi shunday talqinlar, motivlar jahon adabiyoti tarixida ko‘p uchraydi. Alber Kamyuning mazkur essesidan keyin yapon yozuvchisi Ryunoske Akutagava “O‘rgimchak ipi”<sup>20</sup> nomli hikoya yozadi. Uning bosh qahramoni Kandata abadiy do‘zaxga mahkum etilgan. Asar do‘zax tasviri bilan boshlanadi. U yerda odamlar shu qadar mo‘lki, qadam qo‘yishga joy yo‘q. Budda ularni yuksakdan kuzatib turibdi. Kandata atrofqa qarasa, juda ham yuqoridan nurga o‘xshagan tola tushib turibdi. U shu qadar nozik va ingichkaki, sal shamol yelsa uzilib ketishi tayin.

<sup>20</sup> Бир кунлик қўналиға. –Тошкент: Faafur Fулом, 2009. – Б. 163.

Sizif ham, Kandata ham, U. Hamdam hikoyasi qahramoni ham yerdan najot, baxt topa olmay, hayot haqiqatini eng yuksak cho'qqidan qidirayotgan qahramonlar bo'lib, mazkur hikoyalarni mana shu qarash bir-biriga bog'lab turadi. Cho'qqi – mutlaq haqiqat, ilohiy zavq olami, erk va muhabbat vodiysidir. Pastlik esa bema'nilik, erksizlik, qullik va do'zax azobi bilan to'lib-toshgan joy. Hayotning o'zi do'zax degan tushuncha Akutagava talqinida jaranglasa, hayotning bema'niliği Kamyu qarashlarida oydinlashadi. U. Hamdam fikricha, hayot – foni, o'tkinchi hodisa, bu butunning kichik bir qismi, oliy mukammallikning bir zarrasidir. Qismda butunning mukammalligini idrok etish osiy bandalarning imkonidan xorijda hisoblanadi, ya'ni uning intilishlari, oniy tuyg'ulari va harakatlari shu butunlikning bir qisminigina aks ettiradi. Ammo butunlikka intilish, mutlaq komillikni, Bir-u borni izlash va uning oliy haqiqatlarni anglash, shu haqiqatlarga intilish inson umri davomida bosib o'tishi mumkin bo'lgan yo'lning mohiyatini tashkil qiladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Hozirgi o'zbek hikoyalarida individual uslub tahlili**" deb nomlanib, birinchi paragrafda keltirilgan "**Hayot voqeligi va obrazning o'zaro mushtarakligi**" masalalari taniqli yozuvchilar Abduqayum Yo'ldoshev va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolida o'rGANILGAN.

Yangi o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek hikoyachiligidagi o'ziga xos ijodiy izlanishlar qilayotgan, jahon adabiyotidagi mavjud qarashlarni, dunyo ilm-fanidagi yangiliklar, texnik inqiloblar pivovardida kishilar ongida yuzaga kelayotgan qarashlarni adabiy jarayonga olib krayotgan adiblardan biri Abduqayum Yo'ldoshevdir.

Adibning "Quduq", "Aybdor", "Boy", "Vijdon" kabi ko'plab hikoyalarida adabiyotga endi kirib kelayotgan adibning qadami, nafasi va otashi aks etgan bo'lsa, uning keyingi yillarda yozilgan "Puankare", "Parim bo'lsa", "Visol" kabi hikoyalarida o'zini o'zi taftish qilayotgan, olam va odam dunyosiga, olamda kechayotgan turli hodisalarga nisbatan munosabati tayyor yozuvchining nigohi ko'rinish turadi.

Uning dastlabki hikoyalarida realistik tasvir an'analarini ustunlik qilsa, keyingi yillarda yozilgan "Puankare", "Parim bo'lsa", "Visol" kabi hikoyalarida davrimiz kishilarining ijtimoiy-ma'naviy muammolari, shiddatli davr voqeliklariga munosabati tayyor faylasuf yozuvchining nigohi ko'rinish turadi.

Abduqayum Yo'ldoshevning ko'plab hikoyalari mohiyatida Vaqt tushunchasi yotadi. "Vaqt ta'sirini o'tkazmaydigan narsaning o'zi qolmabdi", "Xudoyim meni o'ttiz yil orqaga qaytar" (Puankare), "Oradan o'n yildan ko'proq vaqt o'tdi. Dunyoda eskirmaydigan moddiylik yo'q" ("Istilo"), "Tushunganimda esa... kech bo'lgandi"... Ha kech bo'lgandi... ("Qaydasan, mo'jiza), "Hali vaqt bor", "Nimasini aytay, umrim shunaqa o'yin bilan o'tib ketyapti, ana" ("Hissa"), "Vaqt esa shuvullab o'tadi", ("Vijdon") "Nahot, nahot umr o'tgan bo'lsa" ("Aybdor"), "Mehmon vaqtning o'zini to'xtatmas, balki Vaqtning ichidagi Vaqtni yilib olardi", "Vaqtning siqib suvini ichaman, axir siqaversa, nafaqat toshning, Vaqtning ham moyi chiqadi" ("Hali vaqt bor") kabi jum'lalarda adib ijodining bosh g'oyasi yotadi. Uning fikricha, inson faqatgina Vaqtning egasi. Uni mol-dunyo to'plab, to'y-ma'raka o'tkazish va boshqa mayda-chuyda narsalarga sarflash o'zbek xarakterining bosh belgisi sifatida ta'kidlayotgandek bo'ladi.

Abduqayum Yo'ldoshev texnika dunyosi, algoritmlar, kibernetika olamini yaxshi biladi. Inson qalbi bilan matematik qonuniyatlar bir-biriga bog'liqligini ich-ichidan his qiladi. "Dunyo" – matematik qonuniyatlar yig'indisi"<sup>21</sup>, deb yozadi u "Istilo" hikoyasida.

Ammo ba'zi o'rinalarda bunday atamalarni keltirishda abadiy til me'yorlarining buzilishi, badiiy uslubdan ko'ra ilmiy uslub unsurlarining ortib ketishi asar poetikasini jo'nlashtiradi. Yozuvchi hikoyalarida "Uyatchan mimoza", "fizik agent", "radiomutantlik", ("Topmay turib yo'qotganim"), "perfokartada programmalashtirilgan sinov misollari", "tranzistorlar" ("Istilo"), "xromatograf", "masspektograf", "perfokarta", "paratoluosulfokislota", "autotrening",

<sup>21</sup> Йўлдош А. Қайдасан мўъжиза. – Тошкент: Faafur Fулом, 2019. – Б. 184.

“rezorsinomochevinoformaldegidnoalkidnoizotsianat” (“Shayx ur-rais”), “Quymani charxlash ishini avtomatlashirish” (“Hali vaqt bor”) singari faqatgina soha mutaxassislariga tanish bo‘lgan shunday o‘nlab atama va nomlar uchrasa, ba’zida butun jumla shunday terminlardan tashkil topganini ko‘rishimiz mumkin. Bu jihat adib ijodida publisistika ruhini kuchaytirib, asarning badiiy salmog‘ini susaytiradi.

Misol uchun: “Do‘xtirlar palpatsiya, perkussiya, auskaltatsiya, biopsiya usullari bo‘yicha bemorni dastlabki tekshiruvdan o‘tkazishib, xastalik belgilari haqida ma’lumotlarni to‘plab qo‘ygan bo‘ladilar. Bunga qadar esa sfigmograf degan mashina bemorning yurak-tomir harakatlarini, elektroensefalograf esa miyadagi elektr potensiallarini qayd qilib bergen bo‘ladi” (“Shayxur ur-rais”) kabi gapni o‘quvchi qabul qilishga qiynaladi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol shaxsiga, uning qalbi va ruhiyatiga oid individual kechinmalar, tuyg‘ular, holatlar tasviri keyingi paytlarda ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etildi. Xususan, taniqli munaqqid Umarali Normatov “Tafakkur yog‘dusi” nomi bilan yozuvchiga ochiq xat<sup>22</sup> yozadi. Yozuvchining “Ayol qiyofasidagi ajal”, “Tafakkur”, “Ayol”, “Gunoh”, “Yovuzlik farishtasi”, “Rashk” kabi hikoyalarida millat mintalitetiga xos bo‘lgan mental xususiyatlar aks ettiriladi. Uning asarlarida ko‘proq qishloq hayoti, tabiat, turli-tuman odamlar, ularning hayot tarzi, o‘y-fikrlari, tafakkur-tasavvur olami, qadriyat va falsafasi tasvirlanadi. Adibaning ijodiy uslubini yorqin aks ettiruvchi asarlardan biri “Tafakkur” hikoyasidir.

Yozuvchi Tangriberdi obrazi orqali o‘quvchini boy berilgan avlodlar, qo‘ldan ketgan qancha imkoniyatlar haqida eslatadi. Aslida bu jamiyatda minglab Tangriberdilar bor va ular hamisha qaydadir muhit va zamonning, qadriyat-u feodal tushunchalarning qurboni bo‘ladilar. Millat ruhiyatiga singib ketgan qo‘rquv, ojizlik va johillik uchun hamisha o‘zi badal to‘lashini, uning har bir farzandi uchun o‘zi javobgar ekanini ta’kidlaydi.

Toki inson o‘z muhitidan erkin bo‘lmas ekan, shu chirkin muhitning qurboniga aylanadi. Jamiyat ham muntazam tarzda o‘zini taftish etmasa, insonni erkin va mustaqil qadriyat deb bilmasa, uning qalbi bilan, e’tiqodi va qarashlari bilan hisoblashmasa, xuddi Tangriberdi kabi mohiyatini yo‘qotib qo‘yishini, qurbonliklar evaziga faqatgina o‘zi zavol bo‘lishini aytadi. Zulfiya Qurolboy qizi Tangriberdi obrazi orqali jamiyatni tahlil qildi, Eshboev, Dovul tegirmonchi obrazlari orqali bugungi kundagi ijtimoiy muammolar, ziddiyatlar-u fojialar haqida o‘quvchini ogohlantiradi. O‘zbek jamiyatini shu paytgacha mavjud bo‘lgan qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqish g‘oyasini asar qatiga singdirmoqchi bo‘ladi.

“Zulfiya asosan oddiy odamlar, omadi chopmagan, ishi yurishmagan, nochor, taqdirning noravo yo‘llarida sarson-u sargardon kishilar obrazini yaratadi. U bunday holatlarning vujudga kelish sabablarini izlamaydi. O‘scha holatni aynan tasvirlash va o‘quvchining ko‘ziga ko‘rsatish bilan kifoyalanadi”<sup>23</sup>, deb yozadi X.Do‘stmuhammad adiba ijodi haqida to‘xtalar ekan.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalaridagi asosiy xususiyat ham shunda bo‘lib, uning hikoyalarida hammaga ma’lum ijtimoiy muammolar, hayotda tez-tez uchrab turadigan kolliziylar tasvirlansa-da, ularning ildizida ulkan ijtimoiy, og‘ir ruhiy-psixologik muammolar yotadi. Adiba ijodiy uslubining o‘ziga xosligi ham shunda yaqqol ko‘rinadi. U turli ijodiy eksperimentlar qilishdan o‘zini tiyadi, shakliy izlanishlar yo‘lidan bormaydi. Nimani ko‘rsa, ko‘rganicha, o‘ylasa, o‘ylaganicha, barchasini o‘z holicha tasvirlashga intiladi.

Ikkinci paragrafdada **hozirgi o‘zbek hikoyalarida individual uslub tahlili** e’tibor qaratiladi. Unda taniqli yozuvchilar Bahodir Qobul va Shuhrat Matkarim hikoyalari tahlili orqali qahramon ruhiyati tasviriga xos tamoyillar analiz qilinadi.

Zamonaviy o‘zbek nasrida Bahodir Qobul ijodi, individual tabiat, betakror o‘zligi, quyma va tabiiy xarakterlari, o‘ziga xos uslubiy izlanishlari bilan ajralib turadi.

<sup>22</sup> Норматов У. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2021. – Б. 480.

<sup>23</sup> Куролбай З. Ёвузлик фариштаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 3

Adibning dastlabki “Tush” nomli hikoyasi 1983-yilda chop etildi. Yozuvchining “Ena shamol”, “Bog‘dagul”, “Oq dala”, “Otahayot” qissalari, “Otamozor”, “Enabuloq”, “Kunga matal kampirlar”, “Tanovor”, “Oq kamar”, “Sunbula”, “Oybuloq”, “Yomg‘ir yoqqan tunda” hikoyalarda millat tabiatidagi tug‘ma xarakterlar, o‘zbek xalqi, xususan, adib tug‘ilib o‘sgan yurt odamlari tabiatini, xarakterini va dunyoqarashini ifodalovchi mental xususiyatlari aks ettiriladi.

Nafis lirizm ruhidagi bu hikoyalari ko‘proq biografik xarakterda bo‘lib, ularda mazkur janrga xos ko‘plab adabiy qonuniyatlarga ahamiyat berilmaydi. Adib o‘ziga xos tarzda hamma ko‘nikkan, o‘rgangan poetik usullardan voz kechadi. Hajman va kompozitsion jihatdan hikoya janrini eslatuvchi asarlarni “bitiklar”, tafsilot sal kengroq berilgan asarlarni “qisqa bitiklar”, hajman salmoqliroq va boshdan-oyoq tasvir, peyzaj, naturaga qurilgan asarlarni “uzun bitiklar” deb nomlaydi. Ushbu tasnif esa zamonaviy adabiy-nazariy tushunchalarimizdagi hikoya, qissa, roman janrlarini yodga soladi. Ammo yozuvchining biror asari shakl va kompozitsiyasi, strukturasi jihatidan mazkur qoliplarga to‘la mos tushmaydi.

Bahodir Qobul asarlarida bugungi kunda unutilayozgan, yoshlar tilida deyarli uchramaydigan xalq maqollari, hikmatli so‘zлari, iboralari, ba’zi o‘rinlarda shevalarga, ibora va matallarga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Adib hikoyalarda olamni idrok qilayotgan, tiriklikdan so‘z, fikr, go‘zallik va hikmat topayotgan qahramon timsoli gavdalanadi. Uning qissa va hikoyalarda o‘tgan bolalik payti xotiralari, tog‘liklarga xos bo‘lgan urf-odatlar, u yerda yashovchi insonlarning dunyoqarash va tafakkuri plastik tasviri beriladi.

Bahodir Qobul o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, asarlari tuzilishi, shakli, ohangini qayta-qayta sayqallovchi, tahrir qiladigan, o‘zgarish va qo‘sishchalar qilib boradigan ijodkor. Masalan, uning “Bog‘dagul” asarining yettita varianti mavjud, u nashrdan nashrga, kitobdan kitobga takomillashib, to‘ldirib borilgan. “Enayo‘l” qissasi dastlab “Oy yo‘li” nomi bilan nashr etilgan bo‘lsa, keyinchalik “Enayo‘l”ga aylandi. Shuningdek, uning “Enashamol” qissasining beshta varianti, “O‘siprinlik” (dastlab “Sharq yulduzi” jurnalining 2007-yil, 4-sonida “Ko‘zoydin” nomi bilan chop etilgan) hikoyasining to‘rt xil shakli, “Otahayot” qissasining ham shuncha shakli bor.

“Kunga matal kampirlar” hikoyasi dastlab adibning “O‘siprinlik”<sup>24</sup> qissasi tarkibiga kirgan. Keyinchalik yozuvchi bu syujetni qissa tarkibidan ajratib, shu nom bilan hikoya shaklida taqdim etadi.

Ammo uning birorta hikoyasini, qissasini janr nuqtai nazaridan ajratib bo‘lmaydi. Hikoyalardagi ohang, syujet, tasvir, ifoda va kompozitsiya yillar o‘tib to‘ldirilgan holda qissaga aylanadi, qissalaridagi ayrim dramatik sahnalar, detollar keyinchalik mustaqil holda hikoya shakliga kiradi. Qizig‘i shundaki, mazkur qissalarda tasvirlangan birorta voqealar keyingisi bilan bog‘lanmaydi, har bir bob, bo‘lim mustaqil holda asar mazmunini o‘zida ifodalaydi.

Adib tiriklik dunyosi haqiqatlarini Mardon tentak tilidan beradi. Tentak – qishloqning vijdoni, qolaversa, nisbatidan ko‘rinib turganidek, tilining qulfi yo‘q. Deyarli ko‘pgina asarlarida bir-biriga ko‘chib yuruvchi bu obraz vositasida adib yahagan yurt mintaliteti, qishloq haqiqatlarini, olam va odam dunyosidagi murakkab vaziyatlar, chalkashliklar, ziddiyatlarni ko‘rsatadi.

Adabiyotda bosh mezon hayotiylik va uni ta’minlovchi kuch san’atkorning ijodiy individualligi bilan belgilanar ekan, 80-yillar oxirida o‘ziga xos uslubi, betakror dunyosi va o‘tkir nigohi bilan ijod qilayotgan adib Shuhrat Matkarimni tilga olish o‘rinli bo‘ladi.

Uning “Yo‘riqsiz tushlar”, “Xiyonat”, “Skripka ko‘targan qiz”, “Ilmql” kabi ilk hikoyalari bilan jamoatchilik e’tiboriga tushgan yozuvchi keyingi 15-20 yil davomida ijodiy tanaffus qildi. Shu hikoyalardayoq hali o‘ttizga kirib ulgurmagan qalamkashning hayot va adabiyot haqidagi qarashlari ancha muayyanlashgan, jahon adabiyotining badiiy-nazariy

<sup>24</sup> Кобул Б. Ўспиринлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 33-38.

qonuniyatlarini yaxshigina o'zlashtirgan, o'zining poetik tutumlari, prinsiplariga ega bo'lgan yozuvchi sifatida shakllanganligini ko'rsatadi.

Adibning "Yo'riqsiz tushlar" hikoyasi 1987-yilda yozilgan. Bu hikoya syujetining originalligi, tasvir va ifodaning quyuqligi, betakror metafora va tashbehlari, o'zgacha ohangi bilan ajralib turadi. Yozuvchi sof o'zbekcha tafakkur tarzi, ifoda uslubi bilan, hech qanday adabiy ta'sirlardan, turli "izm"lar havasidan xoli bo'lgan adabiy qahramonni o'zbek adabiyotiga olib kirgan deb ikkilansdan aytishimiz mumkin.

Uning keyungi yillarda yozilgan "Boljon", "Jim o'tirgan odam", "Anaxita" kabi hikoyalarda esa avvalgi yillardagi hikoyalardan farqli tarzda hayotga falsafiy nigoh, nisbatan erkin yondashuv, holat va vaziyatga nisbatan individual munosabatni ko'rish mumkin. Bu hikoyalarda qahramon nigohidan ko'ra roviy qarashlari birinchi planga chiqadi.

Adib hikoyalarining asosiy xususiyatlaridan biri unda Xorazm xalqiga xos sheva so'zlar, maqol va iboralar, frazeologik birlklarni faol qo'llanganida ko'rindi. Adib asarlari negizida hozirda yoshlar tilida deyarli uchramaydigan, tobora unutilib borayotgan sheva so'zları lug'atini tuzish mumkin.

Ular hikoya qahramonlari dialoglaridan tashqari muallif nutqida ham faol kuzatiladi. Bu esa adabiy til va badiiy asar haqidagi an'anaviy qarashlarimizga mos kelmaydi. Bizningcha, sheva birlklari qahramon nutqi va dialoglarda qo'llanilgani, muallif nutqi sof adabiy tilga tayangani ma'qul.

Adib ijodiy tafakkuri juda erkin, shu bilan birga u birorta fikrni ochiq aytmaydi. Uning hikoyalarda har bir epizod, detal yoki badiiy-tasviriy vositalar mohiyatida yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oya, fikrning uchqunlari ko'riniib turadi. Yozuvchi asarlarining umumiy g'oyasi sifatida bugungi inson o'zini qayta idrok qilishi, ming yillardan buyon mavjud bo'lgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarning unutilishi u millatni ruhiy, ijtimoiy fojalarga olib borishi mumkinligidan o'quvchilarni ogohlantiradi.

## XULOSA

1. X. Do'stmuhammad hikoyalari polifonik asosga qurilgan bo'lib, uning ijodida uslub rang-barangligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Hikoyalardagi ohang, ritm, shakl, mazmun, g'oya, syujet, tugun, umuman, barcha poetik unsurlar yozuvchi ijodiy yo'lini turfa tajribalarga boyligini ko'rsatadi.

2. X. Do'stmuhammad hikoyalarida ong oqimi, ruhiyatdagi xaos va kosmos, ratsional va irratsional jarayonlar yaxlitlashib, moddiy borliqni yuzaga keltiradi. Adib hikoyachilik janrini "Topishmachoq" va "Og'zaki hikoyalar" uslublari bilan boyitdi.

3. Modern hikoyachilikning eksperimental tajribalari Olim Otaxon ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adib inson qalbining eng chuqur joylaridagi yashirin sirlarni, botin va zohir munosabatlari, ziddiyat-u kurashlarini asarlari ob'yekti sifatida tanlaydi.

4. Nazar Eshonqul uslubini turkiy mifologik obrazlar, ramzlar, folkloriga xos kodlar, istiora, timsollar dunyosi sifatida baholash mumkin. Adib uslubi sinkretik xarakterga ega, uning ayrim hikoyalari an'anaviy realizm, ayrimlari modern uslubida, ayrim hollarda esa absurd xarakterga ega.

5. Nazar Eshonqul nasrida zamonaviy va jahon adabiy-tanqidiy qarashlari sintezini kuzatish mumkin. Adib ijod jarayonini san'atkorning mavjud borliqqa, jamiyat va axloqiy qadriyatlarga nisbatan isyon tarzida talqin qiladi va mana shu ehtirosli isyon adib asarlari leytmotivini belgilaydi.

6. U. Hamdamning realistik yo'lda yozilgan hikoyalari sof an'analar mevasi bo'lsa, ayrim asarlari voqelikka munosabati va tasvir yo'sini bilan esse janrini yodga soladi. Adibning modern va postmodern usulida yozilgan hikoyalarida esa inson ongidagi jarayonlar ijtimoiy

voqeliklardagi hodisalardan-da muhimroq ahamiyat kasb etadi. Shunday asarlari poetikasida shartlilik, ramz va metafora yetakchi mavqeni egallaydi.

7. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida millat mentalitetiga xos bo‘lgan mental xususiyatlar aks ettiriladi. Uning asarlarida ko‘proq qishloq hayoti, tabiat, turli-tuman odamlar, ularning hayot tarzi, o‘y-fikrlari, tafakkur-tasavvur olami, qadriyat va falsafasi tasvirlanadi. Yozuvchi asarlarida tez-tez uchrab turadigan kolliziyalar mohiyatida, ayollar dunyosidagi ijtimoiy-ma’naviy, ruhiy-psixologik muammolar yotadi.

8. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” asari keyingi o‘n yillikdagi eng baland hikoya. Unda millat ziyolisining achchiq, shu bilan birga fojiali hayoti aks ettirilgan. Zulfiya Qurolboy qizining “Tafakkur” hikoyasi va “Puankare” mohiyatan genezisi bir hikoyalar.

9. Adib texnika dunyosi, algoritmlar, kibernetika sohalari bo‘yicha mutaxassis. Shuning uchun inson qalbi kashfiyoti bilan shug‘ullanuvchi adabiyot bilan teoremlar-u gipotezalar, labirint-u rebuslardan tashkil topgan matematik qonuniyatlar bir-biriga bog‘liqligi masalasi ko‘pgina hikoyalarining mohiyatida yaqqol ko‘rinib turadi. Shuning uchun adib uslubida badiiy, ilmiy va publitsistik unsurlar qorishib ketadi.

10. Bahodir Qobul ijodi hech qanday poetik kanonlar qobig‘ida qotib qolmaydi. Uning “bitiklar”i , “qisqa bitiklar”i, “uzun bitiklar”i, mohiyatan bitta ijodiy asosga qurilgan. Uning qissalarini hikoyadan, hikoyalarini qissadan, shakliy va kompozitsion jihatlariga ko‘ra o‘zaro ajratib bo‘lmaydi. Uning asarlaridagi obrazlar assotsiativ tarzda bog‘lanib, yaxlit shaklda turkiy o‘zbek urug‘larini umumiyy badiiy obrazi yaratiladi.

11. Shuhrat Matkarim uslubining bosh xususiyati sheva birliklarining faol qo‘llanilganida ko‘rinadi. Uning hikoyalari g‘oyaviy-badiiy mazmuni millatning individual qadriyatlari, shu jumladan, madaniyati, tili, san’atini sof holda asrab qolishdan iboratdir.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**TAJIEV ALIMURAD ALIAKBAROVICH**

**SCIENTIFIC RESEARCH IN MODERN UZBEK STORY  
STYLISTIC EXPLORATIONS OF CONTEMPORARY UZBEK SHORT PROSE**

**10.00.02 – Uzbek literature**

**(20th century Uzbek literature and the current literary process)**

**(philological sciences)**

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON  
PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Toshkent – 2025**

**The theme of dissertation for the degree of the doctor of philosophy (PhD) was registered at the Higher Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan with the number B2022.2.PhD/Fil2463.**

The dissertation was completed at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The dissertation abstract was posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) and on the “ZiyoNet” information and educational portal ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific supervisor:**

**Karimov Bahadir Nurmetovich**

doctor of philological sciences, professor

**Official opponents:**

**Yakubov Islam Ahmedjanovich**

doctor of philological sciences, professor

**Sattarova Gulnaza Yunusovna**

candidate of philological sciences, associate professor

**Leading organization:**

**Tashkent State Pedagogical University**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Academic Council under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01, “\_\_\_”, 2025, at \_\_\_ o'clock.

(Address: Tashkent city, Yakkasaroy district, Yusuf Khos Hojib street, 103. Web-site: [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz) E-mail: [toshdotau@exat.uz](mailto:toshdotau@exat.uz) Tel:71-281-45-11

The dissertation can be viewed at the Main Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered under number \_\_\_\_). Address: 100100, Tashkent city, Ziyolilar street, 13. Tel: (71) 262-74-58.

The dissertation abstract was distributed on “\_\_\_”, 2025.  
(Register record number \_\_\_ dated “\_\_\_”, 2025)

**H. Dadabaev**

Chairman of the Scientific Council

awarding scientific degrees,

doctor of philological sciences, professor

**K.Pardaev**

Secretary of the Scientific Council

awarding scientific degrees,

doctor of philological sciences, professor

**N.Jabbarov**

Chairman of the academic seminar under the scientific council awarding scientific degrees,

doctor of philological sciences, professor

## INTRODUCTION

### **(Abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)**

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In world literary studies, the development of the short story genre, its ideological and artistic aspects, as well as the processes of renewal in terms of form and content, are considered significant issues. In particular, the style of storytelling and its gradual evolution, modes of expression, principles of creating plots, characters, and imagery are undergoing distinct transformations. It is natural for new methods, styles, and trends emerging in world literature to influence the worldview and style of modern Uzbek short story writers.

The ideological and artistic characteristics, stylistic development, and skills in expression, depiction, interpretation, and analysis, as well as character creation, in short stories created in recent years in both world and Uzbek literature, are essential to explore. Identifying the leading principles of contemporary Uzbek prose and the school of Uzbek modern storytelling is one of the pressing tasks of current literary studies. Although numerous scientific investigations, theoretical studies, and analytical articles have been produced on these issues, a comprehensive examination of the stylistic searches in today's storytelling, as well as the signs of renewal in literary thought through the works of specific writers, underscores the significance of this research topic. The works taken as the basis for this research characterize the literary identity of modern Uzbek storytelling, showcasing the level of intellectual development and poetic potential of our writers.

Literature has always evolved in harmony with the times. It consistently reflects the warmth of the people's hearts, their hopes and aspirations, imaginations, and ideals. In this sense, the statement, "Attention to literature, art, and culture is, first and foremost, attention to our people and our future. As our great poet Chulpon said, if literature and culture survive, the nation can survive,"<sup>25</sup> reminds us of our responsibility not to forget this truth. This underscores the necessity of conducting research in literary studies that meets the demands of the new era, addressing the many challenges that contemporary literary scholarship faces.

Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-4797 dated May 13, 2016 "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi", No. PD-5850 dated October 21, 2019 "On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language", No. PR-3160 dated July 28, 2017 "On increasing the efficiency of spiritual and educational work and raising the development of the sector to a new level", No. PR-3652 dated April 5, 2018 "On measures to further improve the activities of the Writers' Union of Uzbekistan", No. PD-5847 dated October 8, 2019 "On the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan "On Approval of the Development Concept until 2030", the report "Development of Literature, Art, and Culture - a Solid Foundation for Enhancing the Spiritual World of Our People" from the meeting with representatives of the creative intelligentsia of Uzbekistan on August 3, 2017, and other relevant regulatory and legal documents will serve to a certain extent in implementing the tasks set forth in the Resolutions.

**The accordance of research with the priorities of the development of science and technology of the Republic.** The dissertation research was carried out in accordance with the priority direction of the republican scientific and technical development "In the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a

---

<sup>25</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир" мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил 4 август.

democratic state, the formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation.”

**The extent of study of the problem.** The genre characteristics, theoretical foundations, stylistic, and expressive aspects of the short story have been extensively studied in global literary studies by scholars such as Aristotle, V. Belinsky, A. N. Veselovsky, M. M. Bakhtin, V. V. Vinogradov, L. Timofeyev, M. B. Khrapchenko, Yu. Borev, N. D. Tamarchenko, and Ye. I. Khalizev.<sup>26</sup> In Uzbek literary studies, various aspects of the short story genre – such as the writer's craftsmanship, style and expression, plot and composition, conflict, character development, and many other related issues – have been comprehensively explored in the monographs, dissertations, and articles of scholars like M. Kushjanov, N. Karimov, S. Mamajonov, N. Vladimirova, S. Mirvaliev, U. Normatov, A. Rasulov, B. Nazarov, A. Alimuhammedov, N. Rahimjanov, H. Boltabaev, K. Yo'ldashev, Y. Solijonov, X. Dustmuhammad, D. Kuranov, B. Karimov, A. Ulugov, B. Rahmanov, U. Jurakulov, Sh. Doniyorova, G. Sattarova, D. Xaldarov, S. Komilova, Sh. Odilov, M. Kuchkarova, and others. These studies have provided a detailed analysis of the genre, contributing significantly to understanding its evolution and artistic potential in both global and Uzbek contexts.<sup>27</sup>

**The connection of the research with the research work of the research institution where the dissertation was completed.** The dissertation has been conducted within the framework of the research plan of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy, under the topic “Stylistic Explorations in Contemporary Uzbek Short Story Writing.”

<sup>26</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Выс. школа, 1989. – 406 с; Белинский В.Г. Собрание сочинений. – Т.3. – Москва: Худ. литер, 1978. – 271 с; Борев Ю. Эстетика. Теория литературы: Энциклопедический словарь терминов. – Москва: Астрель, 2003. – 575 с; Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – Москва: Сов. писатель, 1981. – 400 с; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Худ. литер, 1975. – 502 с; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – Москва: Выс. школа, 1971. – 118 с; Храпченко М.П. Познание о литературе и искусстве. – Москва: Наука, 1987. – 575 с; Тамарченко Н.Д. Теория литературы // Роды и жанры. – Москва: ИМЛИ РАН, 2003. – 228 с; Хализев В. Е. Теория литературы. – Москва: Выс. школа, 2002. – 397 с; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта – Наука, 2002. – 248 с.

